

**BOSHLANG'ICH SINF TARBIYA DARSLARIDA MA'NAVIY-AXLOQIY
MADANIYATLILIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH SHAKL VA
USULLARI**

Zokirova Ma'suma Qahramon qizi

*Namangan davlat pedagogika instituti
Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
Mutaxassisligi 2-bosqich magistranti*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada tarbiya darslarida ma'naviy-axloqiy madaniyatilik kompetensiyasini rivojlantirish shakl va usullari haqida fikr yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *tarbiya, ma'naviy tarbiya, axloq, axloqiy tarbiya, metod, tarbiya mazmuni, pedagogik malaka.*

Аннотация: В данной статье рассматриваются методы развития компетенции морально-этической культуры на учебных занятиях.

Ключевые слова: *образование, нравственное воспитание, этика, нравственное воспитание, метод, содержание образования, педагогическая квалификация.*

Abstract: *This article discusses the methods of developing the competence of moral and ethical culture in education classes.*

Keywords: *education, moral education, ethics, moral education, method, content of education, pedagogical qualification.*

Prezidentimiz Sh.M.Miromonovich ta'kidlaganlaridek: —Ta'lim-tarbiya sohasida zamonaviy va oqilona tizim yaratish, o_qitish metodlari, ta'lim standartlari, darslik va o_quv qo'llanmalarini yangilash zarur|. Bu esa o_z navbatida o_quvchilarni ma'naviy tarbiyalash bo_yicha asosiy yo_nalishlarni belgilash1; – o'quvchilarda Vatanga sadoqat, mehr-oqibatlilik, mas'uliyatlilik, axloqiy tarbiya kabi muhim fazilatlarni bolalikdan boshlab bosqichma-bosqich shakllantirish;

1O_zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi —Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chor tadbirdari to_g_risidal||gi 1059-sonli qarori

– uzluksiz ma'naviy tarbiyani amalga oshirishda ota-onasiga, tarbiyachi, o_qituvchi, uzluksiz ta'lim muassasalari va mahalla jamoatchiligining o_zaro samarali hamkorlik mexanizmini ishlab chiqish va hayotga joriy etish; – aholining farzand tarbiyasi bo_yicha bilimlarini, pedagogik madaniyatini oshirish, fuqarolarni uzluksiz ma'naviy tarbiyaning jahon tajribasida sinovdan o_tgan samarali pedagogik texnologiyalari, usullari va amalga oshirish shakllari bilan muntazam tanishtirib borish; – ommaviy axborot vositalari, shu jumladan, Internet jahon axborot tarmog_i orqali tarqatilayotgan g_arazli axborotlar, odob-axloqini yemiruvchi illatlar, o'quvchilarni zalolatga boshlovchi buzg_unchi g_oyalarga qarshi sog_lom dunyoqarashni shakllantirish; – uzluksiz ma'naviy tarbiyani tashkil etishda davlat tashkilotlari, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari va xususiy sektorning


hamkorligini samarali yo_lga qo_yish kabi bevosita ijtimoiy kompetensiyalar bilan bog_liq vazifalar belgilab berildi.

Boshlang_ich sinf tarbiya darslarida ushbu kompetensiyalarni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Quyida tarbiya darsligi misolida bir qator metodlarni ko_rib chiqamiz:

Tarbiya darslarida ma'naviy-axloqiy madaniyatatlilik kompetensiyasini rivojlantirish metodlari

T/r	Ma'naviy-axloqiy madaniyatatlilik kompetensiyasi mezonlari	Darslikdagi mavzular	Qo'llanilgan metodlar
1	Jamoat joylarida o'zini tutish	Jamoat transportida	Klaster
2	Ahilik	Men va mening sinfdosh do'stlarim	"To'g'ri-noto'g'ri" metodi
3	Oqibat	Mehr-oqibat nima?	Muammoli vaziyat,savol-javob,klaster
4	Halollik	Halollik nima?	Muammoli vaziyat,savol-javob
5	Hurmat	Hurmat va xushmuomalilik	Savol-javob,mantiqiy krossvord
6	Samimiylilik,mehribonlik	Mehmondo'stik	"To'g'ri-noto'g'ri" metodi
7	Mehnatseyarlilik	Bir-birimizga yordam beramiz	Ko'rgazmalilik metodi
8	Ijtimoiy madaniyat	Bizga telefon,televizor,kompyuter nima uchun kerak?	Klaster, savol-javob
9	Hurmat, jamoat joylarida o'zini tutish	Jamoat joylarida bo'lish odobi	"To'g'ri-noto'g'ri" metodi, savol-javob
10	Ma'naviy tarbiya	Kitob-eng yaxshi do'stimiz	Muammoli vaziyat,savol-javob,klaster

Shu bilan bir qatorda, tarbiya darsligida keltirilgan ayrim mavzular tahlilini ko_rib chiqish mumkin:



Yuqorida ko_rgazmalilik metodi asosida o_quvchilarga jamoat transportida yurish odobini o_rgatiladi. Rasm orqali o_quvchilar jamoat transportida harakatlanishda qanday qoidalarga amal qilishni, kattalarga joy berish, avtobus ichida to□polon qilmaslik kabilarni o□rganishadi. Rasmida 4ta vaziyat keltirilgan:

Avtobus ichida bolalar urishyapti.

Bola kattalarga joy beryapti.

D.Bola kattalarga joy bermasdan, uxbab ketyapti.

E. Qiz avtobusga qog_oz tashlab, uni iflos qilyapti.

Bunda o_qituvchi 4 ta vaziyatni o_quvchilarga tushuntirib, qaysi vaziyat to_g_ri yoki noto_g_ri ekanligini bolalardan so_rashi va bolalar har bir vaziyat yuzasidan o_zining fikrmulohazalarini bildirishi kerak. So_ng esa, o_qituvchi umumiylab, bolalarga jamoat transportida yurish haqida tushuntirib beradi. Bu metod orqali ularda jamoat transportida yurish odobi, kattalarni hurmat qilish, atrof-muhitga ehtiyyotkorona munosabatda bo_lish kabi kompetensiyalar rivojlanadi.

DO'STLIK OLIY FAZILAT



O_quvchilarda do_stlik-o_rtoqlig tushunchasini rivojlantirishda yuqoridagi vaziyat haqida savol tashlanadi:


- 1 .Rasmda kimlarni ko_ryapsiz?
2. Uy vazifasini bajarishda do_stingizga yordam berasizmi?
3. Sizningcha, yordam berish to_g_rimi?

Shu kabi savollar orqali o_quvchilardagi bir –biriga o_zaro hurmat,yordam, do_stlik fazilatlarini rivojlantiriladi.

—Kungaboqar||metodi

O_quvchilar 4-5 kishidan iborat guruhlarga bo_linadi. O_qituvchi fanning mavzusidan kelib chiqib, o_rtaga bitta muammoni tashlaydi. Har bir guruh kungaboqar yasab, uning markaziga doira joylashtirib, barglar yopishtiradi. Mavzuga qarab, doiraga har bir guruhga yoki umumiyl bitta muammo yozilib, doskaga yopishtiriladi Ajratilgan vaqt ichida guruhlar birgalikda fikrlarini bargga yozib, uni o_sho guruh muammosi yozilgan gulga joylashtirib qo_yadilar. Bu uslubdan o_tilgan mavzuni tushuntirish, uni mustahkamlash va takrorlash hamda o_quvchilar egallagan bilimlarni aniqlashda foydalanish mumkin.

Masalan, haqiqiy do_stlik nima? kabi.



Boshlang_ich sinf o_quvchilarida ma‘naviy-axloqiy madaniyatilik kompetensiyasini rivojlantirish muhim vazifadir. Tarbiya metodlarini to_g_ri tanlash esa tarbiya vazifalarini ijobjiy hal qilishda o_quvchilarning o_zini-o_zi tarbiyalash faolligini oshirishga yordam beradi. Tabiya metodlari o_quvchi shaxsini har tomonlama kamol toptirish maqsadi bilan belgilanadi va tarbiya jarayoniga taalluqli ko_pgina tarbiyaviy ta_sirlarni o_z ichiga oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Kamoldinov M., Vaxobjonov B. Innovatsion pedagogik texnologiya asoslari, savollar, javoblar. –T.: «Talqin», -17-18-betlar.
2. Крутецкий.В.А. «Педагогик психология асослари». – Т.: Ўқитувчи.1976 й.
3. Mamadjanova N. A.Boshlang‘ich sinf ingliz tili ta‘limi jarayonida o‘quvchilarda ma‘naviy-axloqiy madaniyatilik malakalarini shakllantirish metodikasi: ped. fanl. b. falsafa doktori (PhD) diss. Avtoreferati – N., 2022.51 b.

-
4. Saidaxmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. —Toshkent, —Moliya 2003y 172-bet.
 5. Shermuhamedova S. va boshqalar. Tarbiya. Umumiylar o‘rta maktablarning 2-sinf o‘quvchilari uchun darslik. —T.: «O‘zbekiston» NMIU, 2022.
 6. www.lex.uz